



DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR PERSONS WITH DISABILITIES IN THE NEW UZBEKISTAN

Abduqosim Abdukhakimovich Tojaliev

Associate Professor, FarDU

e-mail: atojaliyev1979@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

Dilmurod Qurbonovich Yuldashev

Assistant Lecturer, KIUF

e-mail: dilmurodfergana@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: persons with disabilities, social protection system, New Uzbekistan, legislative reforms, registry and statistics, digitalization, inclusive services, international experience, social justice, employment and rehabilitation.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the social protection system for persons with disabilities in Uzbekistan from legal, institutional, and practical perspectives. The study examines the existing legal framework, the state of social services, and international experiences—particularly those of Germany, South Korea, and Canada—through a comparative approach. It also explores issues related to disability assessment and registration, the level of digitalization, and regional disparities. Based on the research findings, recommendations are proposed to improve the social protection system, modernize registries and statistical databases, make infrastructure barrier-free, and introduce inclusive communication tools. The study concludes that in the context of New Uzbekistan, ensuring social justice, equal opportunities, and digital inclusivity for persons with disabilities requires further deepening of socio-political reforms.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING IJTIMOIIY HIMOIYASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Abduqosim Abduhakimovich Tojaliev

dotsent, FarDU

e-mail: atojaliyev1979@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

Dilmurod Qurbonovich Yo'ldashev

assistent o'qituvchi, KIUF

e-mail: dilmurodfergana@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoya tizimi, Yangi O'zbekiston, qonunchilik islohotlari, reestr va statistika, raqamlashtirish, inkluziv xizmatlar, xalqaro tajriba, ijtimoiy adolat, bandlik va reabilitatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi tizimi huquqiy, institutsional va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud qonunchilik bazasi, ijtimoiy xizmatlarning holati hamda xalqaro tajriba — Germaniya, Janubiy Koreya va Kanada misolida solishtirma yondashuv asosida o'rganilgan. Shuningdek, nogironlikni baholash va ro'yxatga olish jarayonidagi muammolar, raqamlashtirish darajasi va hududiy nomutanosibliklar tahlil qilinadi. Maqola natijalari asosida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, reestr va statistik ma'lumotlar bazasini modernizatsiya qilish, infratuzilmani to'siqsiz holga keltirish hamda inkluziv kommunikatsiya vositalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy adolat, teng imkoniyat va raqamli inkluzivlikni ta'minlashga qaratilgan siyosiy-ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini asoslaydi.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Абдукошим Абдухакимович Тоджалиев

доцент, ФарДУ

e-mail: atojaliyev1979@gmail.com

Фергана, Узбекистан

Дилмурод Курбонович Йолдашев

Ассистентпреподавателя, КИУФ

e-mail: dilmurodfergana@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лица с инвалидностью, система социальной защиты, **Аннотация:** В данной статье проводится анализ системы социальной

защиты, Новый Узбекистан, законодательные реформы, реестр и статистика, цифровизация, инклюзивные услуги, международный опыт, социальная справедливость, занятость и реабилитация.

защиты лиц с инвалидностью в Узбекистане с правовой, институциональной и практической точек зрения. Исследование рассматривает существующую законодательную базу, состояние социальных услуг, а также международный опыт — на примере Германии, Южной Кореи и Канады — в сравнительном аспекте. Также изучаются проблемы оценки инвалидности и регистрации, уровень цифровизации и региональные различия. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по совершенствованию системы социальной защиты, модернизации реестров и статистических баз данных, созданию безбарьерной инфраструктуры и внедрению инклюзивных коммуникационных средств. Результаты исследования показывают, что в условиях Нового Узбекистана необходимо дальнейшее углубление социально-политических реформ, направленных на обеспечение социальной справедливости, равных возможностей и цифровой инклюзии для лиц с инвалидностью.

Kirish. Nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatdagi zaif qatlamlardan biri bo‘lib, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasi insoniylik va adolat tamoyillari markazida turadi. Ayniqsa, 2020–2025 yillarda O‘zbekistonda ushbu sohada muhim islohotlar amalga oshirildi. 2025-yil 1-choragi holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar soni 1 031 609 nafarni tashkil qiladi. Bu shaxslar umumiy aholi sonining 2,7 % ini tashkil qiladi [14]. O‘zbekistonda nogironlikning tarixiy rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil etadigan bo‘lsak, dastlabki davr 1917–1991-yillar ya’ni Sovet Ittifoqi davriga to‘g‘ri keladi. Nogironlik tushunchasi bu davrda asosan urush nogironlari (Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari) bilan bog‘liq tarzda qaralgan. Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) orqali nogironlik guruhi belgilanar edi. Asosiy e’tibor nogironlarni mehnatga qisman jalb qilish va pensiya bilan ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy infratuzilma, transport, ta’lim va ish joylarida inklyuzivlik tushunchasi mavjud emas edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida nogironlarga oid siyosat milliy darajada shakllana boshladi. “Ijtimoiy himoya to‘g‘risida” (1991-yil) va “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr, 422-XII-son) qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar nogironlarning ijtimoiy himoyasi, moddiy ta’minoti, sog‘lomlashtirish va mehnatga joylashish masalalarini tartibga soldi.

Nogironlar uchun maxsus internatlar, reabilitatsiya markazlari tashkil etildi. Ammo bu davrda ham yondashuv asosan tibbiy va yordamchi model bo'lib, huquqiy-ijtimoiy integratsiya masalalari yetarli darajada rivojlanmadi. 2000–2010-yillarni tom ma'noda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash bosqichi deb atashimiz mumkin. Chunki aynan shu yillarda nogironlar uchun maxsus ta'lim muassasalari (masalan, kar-soqov, zaif eshituvchi va ko'rlar maktablari) faoliyati kengaydi, bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasida nogironlarga imtiyozlar joriy etildi. 2010–2020-yillarni esa Xalqaro standartlarga moslashish davri deb atashimiz mumkin. 2021-yil 7-iyun — O'zbekiston rasmiy ravishda BMT Konvensiyasini ratifikatsiya qildi [13]. Bu bosqich nogironlikka yondashuvni tibbiy modeldan ijtimoiy-huquqiy modelga o'tish davri sifatida baholanadi. “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi [1] qonun qabul qilinib, amaldagi 1991-yilgi qonunni almashtirdi. Ushbu yangi qonun nogironlarning ta'lim olish, mehnat qilish, sog'lom hayot kechirish, transport va infratuzilmadan foydalanish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish huquqlarini kafolatladi. 2020–2025-yillar esa inklyuziv jamiyat va “Ijtimoiy davlat” sari dadil qadamlar tashlandi. 2022-yil 17-may — “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi [3] PQ–257-sonli qaror qabul qilindi. 2024–2025-yillarda nogironlar uchun inklyuziv ta'lim dasturlari, moslashtirilgan transport va arxitektura loyihalari, raqamli identifikatsiya tizimi, reabilitatsiya markazlarining modernizatsiyasi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu — nogironlikni ijtimoiy integratsiya va teng imkoniyatlar kontekstida hal etish hisoblanadi.

Asosiy qism. So'nggi yillarda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi masalasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va turli xalqaro tashkilotlar tomonidan tadqiqot va o'rganish ishlari olib borilmoqda. Shulardan biri UNDP tomonidan O'zbekiston sharoitida tayyorlangan tahliliy hisobot [9] bo'lib unda inklyuziv ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlarni integratsiyalash bo'yicha Integrated Case Management (ICM) modelini taklif qiladi. Mavjud “Inson” markazlari va ijtimoiy xizmatlar tarmoqlarini birlashtirish orqali nogironlar uchun individual reabilitatsiya va ishga joylashtirish imkoniyatlarini oshirishni muhokama qiladi. Pilot hududlar (Toshkent) misolidagi sinov natijalari va tavsiyalar keltirilgan. Yana biri World Bank hujjatlari [8] bo'lib, O'zbekistonning nogironlar siyosati, iqtisodiy muammolar va ijtimoiy himoya tizimi diagnostikasini beradi. Bu hujjatlar nogironlar uchun mavjud ijtimoiy xizmatlarning qamrovi, reestr va statistika kamchiliklari, bandlik va iqtisodiy integratsiya to'siqlarini tahlil qiladi, moliyaviy barqarorlik va investitsiyalar nuqtai nazaridan siyosat variantlarini taqdim etadi. Nafaqa tizimlari va xizmat yetkazib berishdagi bo'shliqlarni aniqlaydi, nogironlikni hisobga olgan qatlamlash va yo'naltirilgan chora-tadbirlar bo'yicha tavsiyalar beradi. Ekspertlar Yusupov D., Abdukhaliyov A. o'z maqolasi [12] da empirik, sifatli tadqiqot (intervyu va fokus-guruhlar) orqali

O'zbekiston kontekstida nogiron shaxslarning ish bozoriga kirishida yuzaga keluvchi institutional, attitudinal va muhitga oid to'siqlarni aniqlaydi. Ushbu tadqiqot eng muhim to'siqlar sifatida diskriminatsiya va stigmatizatsiya, moslashtirilmagan ish joylari, mehnat bozoridagi informatsion uzilishlarni ko'rsatadi. Musurmonova D.M. va Ishmurodov B.F. lar tomonidan yozilgan "Nogironlikka ega bo'lgan insonlarni himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari" [16] nomli maqolada mualliflar O'zbekistonda nogironlar huquqlarini tartibga soluvchi milliy qonunlar tizimini tahlil qilganlar. Xususan, 2021-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi [1] qonunning xalqaro konvensiyalar bilan uyg'unligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotning yangiligi — mualliflar huquqiy asoslarni xalqaro tajriba bilan taqqoslab, ayrim normativ bo'shliqlarni aniqlaganlar. Bu maqola ijtimoiy himoya siyosatining huquqiy bazasini tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Xoshimova M.S. esa o'zining "Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoyasini ta'minlash istiqbollari" [17] maqolasida yangi davr ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, xususan, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasida nogironlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini tahlil qilgan. Muallif ijtimoiy xizmatlar tizimini modernizatsiya qilish, "Inson" markazlari faoliyatini kengaytirish va bandlik imkoniyatlarini oshirishni istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rsatgan. Ishning ilmiy ahamiyati — konseptual yondashuv va rivojlanish strategiyasini amaldagi siyosat bilan bog'laganidadir. O'zbek tilidagi so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda to'plangan: Huquqiy asoslar, Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va siyosiy o'zgarishlar va Ta'lim va integratsiya masalalari. Biroq, mavjud adabiyotlarda empirik (ma'lumotlar asosidagi) tadqiqotlar kam, shuningdek, xalqaro tajriba bilan tizimli taqqoslash yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois, ushbu maqolalar tahlili hozirgi ilmiy ish uchun nazariy va analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

BMT va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi o'rtasida nogironlik darajasi o'rtacha 15 foizni tashkil etadi [5][6]. Shu asosda O'zbekiston uchun taxminan 3–5 million shaxs nogironlik toifasiga kirishi kerak bo'ladi. Biroq rasmiy ro'yxatdagi raqamlar bu prognozdan past bo'lib, 2022 yilda nogironlar soni 845 300 nafarni (2,3 %) tashkil etgan [14]. Ekspert Dilmurod Yusupov tahlillarida ta'kidlanishicha [12], O'zbekistonda nogironlarni ro'yxatga olishdagi to'siqlar, ma'lumotlarning yetarli emasligi va baholash tizimining takomillashmaganligi kabi muammolar mavjud. Bu kabi muammolarni sohani to'liq raqamlashtirish, mutahasislarni to'liq qayta tayyorlash va fuqarolar uchun qulay xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish orqali bartaraf qilish mumkin. O'zbekistonda nogironlikni baholash tizimini isloh qilish, uning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash hamda raqamli shaffoflikni kuchaytirish ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, jamiyatda nogironlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ham tizim

samaradorligini oshiradi. Reabilitatsiya xizmatlarini baholash va samaradorlikni aniqlash mexanizmlari joriy etilmoqda. So‘nggi yillarda sohada ham turli innovatsion yondashuvlar ko‘zga tashlanmoqda. Hususan, raqamli baholash tizimi Toshkent va Navoiy shaharlarida sinov tariqasida joriy etilgan bo‘lib, 2025 yil yakuniga qadar barcha hududlarni qamrab olishi belgilangan. “Social card” loyihasi orqali 200 dan ortiq yo‘nalishdagi nafaqalar, yordamlar va xizmatlar birlashtirilmoqda. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyalari modernizatsiyasi ham sohadagi islohotlar samarasi sifatida ko‘rinadi. Viloyatlardagi 33 ta komissiya o‘rniga tuman va shahar darajasidagi organlarga o‘tilmoqda, pediater shtati joriy etilmoqda va masofaviy baholash tizimiga o‘tilmoqda. Shu kungacha 463 nafar shaxs nogironlik darajasi bo‘yicha masofadan baholangan [15]. Mazkur chora-tadbirlar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun imkoniyatlarni kengaytirish, reabilitatsiya xizmatlari sifatini oshirish hamda raqamli ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga qaratilgan. Shu orqali O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining inklyuzivlik tamoyillari amalda kengayib bormoqda.

BMT konvensiyasi asosida O‘zbekistonda ilg‘or xalqaro amaliyotlarni tatbiq etish ehtiyoji mavjud. Masalan, yuridik yordam siyosatini insonlar tushunadigan til va formatlarda ko‘rsatish, sud tizimlarini nogiron shaxslar uchun qulaylashtirish kabi chora-tadbirlar reytingda yetishmaydi [8]. BMT konvensiyasi talablariga ko‘ra — inklyuziv reabilitatsiya, ish bilan ta‘minlash, mehnat bozorida teng imkoniyatlar, yetarli ijtimoiy himoya yaratish majburiyati yuklangan. O‘zbekistonda biopsixososial modelga o‘tish — UNDP qo‘llab-quvvatlovi bilan yo‘naltiruvchi qo‘llanmalar ishlab chiqildi [9]. Ko‘pgina xorij davlatlarida kvota asosida bandlik va reabilitatsiya xizmatlari joriy etilgan. Bundan tashqari masofaviy ta‘lim va IT yordamida bandlik taklif etadi yoki nogironlar uchun grant va subsidiya dasturlari mavjud. Quyida xorijiy mamlakatlarning ilustratsiv misollari orqali o‘zaro innovatsiyalarni solishtirish va tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash har bir davlatning ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta‘minlashdagi asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nogironlarga berilayotgan yordam nafaqat moddiy qo‘llab-quvvatlash bilan, balki ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish bilan ham bog‘liq. O‘zbekiston uchun bu davlatlarning tajribasidan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda foydali bo‘lishi mumkin. Integratsiyalashgan ijtimoiy yordam tizimini joriy etish (Germaniya tajribasi asosida). Germaniyada sog‘liqni saqlash, ta‘lim, bandlik va ijtimoiy xizmatlar yagona tizimda muvofiqlashtirilgan. Bu nogiron shaxsning muammosini kompleks hal qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda ham nogironlikni aniqlash, reabilitatsiya, bandlik va moddiy yordam jarayonlarini yagona elektron platformaga birlashtirish orqali shaffoflik va tezkorlikni ta‘minlash mumkin. Ish joylarini moslashtirish va kvotalar tizimini kuchaytirish (Janubiy Koreya tajribasi asosida). Janubiy Koreyada har bir korxonaga nogironlar uchun ma‘lum miqdorda ish o‘rni

ajratish majburiyati yuklangan va bu joylarni moslashtirish uchun davlat subsidiya ajratadi. O'zbekistonda ham korxonalarni bunday ish joylarini yaratishga rag'batlantirish, texnik moslashtirish xarajatlarini qoplash uchun soliq imtiyozlari berish foydali bo'ladi. Inklyuziv muhitni kengaytirish (Kanada tajribasi asosida). Kanadada nogironlar uchun inklyuziv ta'lim, transport va madaniy muhit shakllantirilgan. O'zbekistonda bu yo'nalishda maktablar, oliy ta'lim muassasalari va transport infratuzilmasini moslashtirish, raqamli xizmatlardan to'siqsiz foydalanish imkonini berish muhimdir. Bulardan tashqari mustaqil hayotni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish juda muhimdir. Uchala davlat tajribasida nogiron shaxslarning mustaqil yashashini ta'minlash asosiy maqsadlardan biridir. O'zbekistonda "mustaqil yashash markazlari"ni tashkil etish orqali nogironlarga psixologik, yuridik va kundalik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi faolligini oshiradi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi. Natijada, mamlakatda inklyuziv rivojlanish g'oyasi yanada mustahkamlanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, inson huquqlariga asoslangan yangi qonunchilik tizimi shakllantirildi. 2020 yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi [1] Qonun mamlakatda nogironlarning ijtimoiy hayotda teng ishtirok etishiga huquqiy asos yaratdi. Shu bilan birga, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish, reabilitatsiya tizimini modernizatsiya qilish va bandlikni qo'llab-quvvatlash choralari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish va markazlashgan ijtimoiy xizmatlar tizimi joriy etilishi orqali nogironligi bo'lgan shaxslar uchun davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati soddalashdi. Statistik monitoringni kuchaytirish, yangi qonun va farmonlar orqali huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bu sohadagi islohotlarning ijobiy jihatlaridandir. Bu o'zgarishlar mamlakatda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, inklyuziv ijtimoiy siyosatning shakllanayotganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, ayrim tizimlarda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, rasmiy statistika ko'rsatkichlari amaldagi real holatni to'liq aks ettirmaydi, bu esa ro'yxatga olish va monitoring tizimlarining takomillashtirilishini talab etadi. Huquqiy axborotga kirishda, sud tizimida va kommunikatsiya xizmatlarida amaliy to'siqlar mavjudligi hamon muhim muammo sifatida ko'rilmogda. Reabilitatsiya, transport va infratuzilma sohalarida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun to'liq qulay muhit hali yaratilmagan. Shuningdek, ayrim hududlarda ijtimoiy dasturlar samaradorligi "mas'ul yetakchilar"ning tashabbuskorligiga bog'liq bo'lib qolayotgani barqaror tizim yaratish zaruratini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kelgusida davlat

siyosatining barqarorligi, ma'lumotlar bazasining ishonchliligi va nogironlar uchun amaliy yordam ko'rsatish tizimining yanada kuchaytirilishi zarur. Umuman olganda, Yangi O'zbekiston davrida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi yo'lida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni tizimli yondashuv asosida bartaraf etish mamlakatda haqiqiy inklyuziv jamiyat barpo etishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Yangi O'zbekiston davrida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi sohasida tizimli o'zgarishlar amalga oshirildi. Qonunchilik bazasining yangilanishi, raqamlashtirilgan xizmatlarning joriy etilishi va rehabilitatsiya dasturlarining kengayishi ijtimoiy siyosatning insonparvarlik tamoyillariga asoslanganini ko'rsatadi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi [1] Qonun, "Social card" tizimi, rehabilitatsiya markazlarining modernizatsiyasi hamda bandlikni rag'batlantirish mexanizmlari sohada ijobiy natijalar berdi. Shu bilan birga, tizimni yanada mukammallashtirish uchun hal qilinishi zarur bo'lgan masalalar mavjud. Xususan, rasmiy statistika va real holat o'rtasidagi tafovut, reestrlarning to'liq shakllanmaganligi, ayrim hududlarda xizmatlarning cheklanganligi hamda kommunikatsiya vositalarining yetarlicha inkluziv emasligi muhim muammolar sirasiga kiradi. Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq:

1. Nogironlar reestri va statistik tizimni takomillashtirish — real ma'lumotlarni yig'ish, yangilash va tahlil qilish mexanizmlarini raqamlashtirish asosida mustahkamlash.
2. Inkluziv muhit yaratish — sud, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlarda ovozli, Braille va oddiy tildagi kommunikatsiya vositalarini joriy etish.
3. Xalqaro tajribalarni moslashtirish — Germaniya, Janubiy Koreya va Kanada kabi davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanib, qaror qabul qilish, bandlik va rehabilitatsiya xizmatlarini soddalashtirish.
4. Soliq yengilliklari va subsidiya tizimini optimallashtirish — nogiron shaxslar va ularni ishga oluvchi korxonalar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish.
5. Infratuzilmani to'siqsiz holga keltirish — transport, binolar va jamoat joylarida qulayliklarni bosqichma-bosqich ta'minlash.
6. Fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — NNTlar ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy sohada monitoring mexanizmlarini mustahkamlash.

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimi inson huquqlarini ta'minlash, raqamli innovatsiyalarni joriy etish va fuqarolik jamiyatining faolligini oshirish orqali inklyuziv jamiyat sari barqaror qadamlar tashlamoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni tizimli islohotlar orqali hal etish ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi — “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonun. 2020-yil 15-iyun, O'RQ-637. — Toshkent: Lex.uz.
2. Prezident farmoni PF-81 (2022-yil 1-dekabr) — “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. — Toshkent: Lex.uz.
3. Prezident qarori PQ-257 (2022-yil 17-may) — “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida”. — Toshkent: Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori №25 (2023-yil 20-yanvar) — “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturi”. — Toshkent: Lex.uz.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). — New York: United Nations, 2006.
6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). World Report on Disability. — Geneva: WHO Press, 2011.
7. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). Disability Inclusion Strategy and Action Plan 2020–2030. — Geneva: ILO, 2020.
8. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan: First Steps Towards Implementing the CRPD. — Washington, 2023.
9. UNDP. Delivery of Social Services for Persons with Disabilities: Analytical Report. — Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2024.
10. OECD. Integrating Social Services for Vulnerable Groups. — Paris: OECD Publishing, 2022.
11. Mahmudov, A., & Xoliqova, S. “Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi: O'zbekiston va xalqaro tajriba.” Iqtisodiyot va Innovatsiya jurnali, №2 (2023), 45–58-betlar.
12. Yusupov, D., & Abdukhaliylov, A. “Barriers to Disability-Inclusive Employment in Uzbekistan: A Pilot Qualitative Study.” Journal of International Development, 2022.
13. Xoshimova, M.S. “Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoyasini ta'minlash istiqbollari.” Huquq va jamiyat jurnali, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Nogironligi bo'lgan shaxslar soni va ijtimoiy ko'rsatkichlar to'g'risida hisobot. — Toshkent: stat.uz, 2024.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya Milliy agentligi. “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari faoliyati haqida rasmiy ma'lumot. — ihma.uz, 2024.
16. Musurmonova D.M. va Eshmurodov B.F. lar tomonidan yozilgan “Nogironlikka ega bo'lgan insonlarni himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari” . Vol. 37 No. 1 (2025): ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | ЧАСТЬ-37 | ТОМ-1

17. Xoshimova Manzura Solijon qizi. (2025). Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoyasini ta'minlash istiqbollari. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(7), 297–300.